



# JADIDCHILAR

*izdoshlari*

*Hikoyalar  
Ilmiy maqolalar  
San'at asarlari  
She'rlar*

**JAMOAVIY TO'PLAM**

ISBN: 978--9910--905-3



9 789910 905339

**IJODIY VA ILMIY TO'PLAM**

**BUYUK JADIDCHILAR  
IZDOSHLARI**  
**I JILD**

**"Phoenix" nashriyoti  
O'zbekiston – 2024**

**KBK 83.3(50')**

**UO'K 821.512.133.091**

**A 15**

**Xalqaro ijodiy to'plam.** "Buyuk jadidchilar izdoshlari". Ilmiy va ijodiy to'plam. O'zbekiston: «Phoenix publication» nashriyoti, 2024. - 650 bet.

Ilm-fan, ta'lif, madaniyat va ijodning barcha jahbalarida faol yoshlarni shakllantirish yuksak rivojlangan davlat qurishning muhim shartidir. Hozirgi bosqichda keksa avlod tadqiqotchilari o'zlarining boy tajribalarini yangi boshlanuvchi olimlar va ijodkor yoshlari bilan o'rtoqlashishlari, yangi avlod yaratayotgan barcha yangi narsalarni hisobga olishlari juda muhim. Zero, bugungi iqtidorli yosh tadqiqotchilar O'zbekiston kelajak jamiyatining asosidir.

Ushbu almanaxda asarlari taqdim etilgan mualliflarning aksariyati ilm-fan, ta'lif va ijodda chuqur yetuklikni namoyon etadi. Yosh tadqiqotchilarning faol rivojlanish dinamikasi O'zbekiston Respublikasi faoliyatining barcha jahbalarida amalga oshirilayotgan sifat o'zgarishlarining ko'rsatkichidir. Shu yillarda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ko'tarilgan tashabbuslar yosh avlod kamolotiga turtki bo'ldi.

**Antonina Aleksandrovna Iplina**  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

**ISBN: 978-9910-9053-3-9**

**Jamoaviy to'plam, 2024**  
**«Phoenix publication» nashriyoti, 2024**

## **ELBEK YOZG'ICHLARINING - BOLALAR ADABIYOTINI O'QITISHDAGI AHAMIYATI**

**Amonov Ulug'murod Sultonovich**

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fakulteti

Boshlang'ich ta'lif kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

**Saparova Shahlo Ramazonovna**

Buxoro Davlat Universiteti Sport faoliyati va Pedagogik ta'lif fakulteti

Boshlang'ich ta'lif kafedrasi tayanch doktoranti

Tel:+998914039787; gmail: [saparovashakhlo@gmail.com](mailto:saparovashakhlo@gmail.com)

[saparovashahlo243@gmail.com](mailto:saparovashahlo243@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar adabiyotini o'qitishda munosib hissa qo'shgan ma'rifatparvar jadid, pedagog, muttarjim, shoir va yozuvchi, Fitratning shogirdi, serqirra ijod sohibi Elbekning asarlari haqida yoritilgan. Ayniqsa, "Go'zal yozg'ichlar" darsligi va "Armug'on yolqinlar" to'plamlaridagi she'r va masallar, hikoya va qissalar bolalarni Vatanni sevishga, tabiatga mehr berishga, ilm-ma'rifatli bo'lishga va albatta, yaxshilikka chorlaydi.

**Kalit so'zlar:** Jadid ma'rifatparvarlari, jadidlar.uz platformasi, "Go'zal yozg'ichlar" darsligi, "Armug'on yolqinlar", Elbekning asarlari.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2023-yil 3-noyabrda Ostonada bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida "O'tgan asrda yashab ijod etgan jadid ma'rifatparvarlarimizning faoliyatini chuqur o'rganilayotganini" ta'kidlab o'tdilar. Yana prezidentimizning shu yili 11-dekabrda Toshkentda "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyada ishtirokchilarga tabriklari e'lon qilindi: "Barchamizga ayonki, "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallahda, deb bildilar. Ular shu yo'lda fidoyilik ko'rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochdilar. Jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va

turmush tarzini o'zgartirish maqsadida gazeta va jurnallar nashr etdilar. Yoshlarni ilg'or davlatlarga o'qishga yubordilar...

Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'ttasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi.”<sup>19</sup>

“Jadidlar” to'plami, “Jadid” gazetasi, jadidlarchilik harakati haqida hikoya qiluvchi “Armon” filmi va shu mavzuda turli tadbir-u, ilmiy-amaliy anjumanlar o'tkazilishi bu fikrlarning yorqin isbotidir.

Shuningdek, 250 ga yaqin jadidlar turmushi, ishi va merosiga oid qimmatli ma'lumotlar, hujjatlar, asarlarni o'zida jamlagan Jadidlar.uz (<https://jadidlar.uz/>) platformasi ishga tushdi. <https://jadidlar.uz/> platformasi 2021–2023-yillar davomida Vazirlar Mahkamasi qoshidagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi buyurtmasiga ko'ra Tarix instituti xodimlari tomonidan tayyorlangan. Ushbu platformaga hozirga qadar jadidlarga tegishli bo'lgan 174 ta asar, 1000 dan ortiq maqola, 120 ga yaqin she'rlar hamda 500 ga yaqin hikmatli so'zlar kiritilgan bo'lib, portal jadidlarga oid yangi ma'lumotlar bilan doimiy to'ldirib boriladi. Bundan tashqari, ushbu platformaga jadidchilikni o'rganuvchi manbalar sifatida 200 ga yaqin suratlar, 38 ta eshituvlar, 20 ga yaqin ko'ruvlar va 73 ta arxiv yig'ma jildlari kiritilgan. Shuningdek, jadidchilikga oid tadqiqotlar sifatida 95 ta asar, 223 ta maqola, 37 ta dissertatsiya va 9 ta xotira asarlari yuklangan.<sup>20</sup>

Bolalar adabiyotini shakllantirishda ko'plab jadid ma'rifatparvarlari hissa qo'shishgan. Jumladan, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadreddin Ayniy va Elbek bolalar adabiyotini o'qitishda masal va ertaklar, she'r va dostonlar, qissa va hikoyalar, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishgan. Ayniqsa,

<sup>19</sup> <https://daryo.uz/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferensiya-ishtirokchilariga-tabrigi-elon-qilindi>

<sup>20</sup> Manaviyat.edu.uz (telegram rasmiy sahifasi: <http://t.me/manaviateduuuz>)

Sadiddin Ayniyning “Tahsib us-sibyon” (Pok bola), “Yoshlar tarbiyasi” (1909) darsliklari; “Buxoro jallodlari” (1922), “Odina” (1924), “Qulbobo yoki ikki ozod” (1928), “Eski mакtab” (avtobiografik qissa, 1935), “Sudxo’rning o’limi” (1939), “Yetim” (1940) qissalari va Elbekning “O’zbekcha o’qish kitobi” (Fotih Sayfi bilan hamkorlikda, 1922), “O’rnak”, “Bilim”, “Go’zal yozg’ichlar”(1925) kabi darslik, o’quv qo’llanmalari; “Armug’on”, “Yolqinlar”, “Momaguldurak”, “Tanlangan asarlar” to’plamlaridagi asarlari shular jumlasidandir.

Elbek, Mashriq Yunusov 1898-yilda Toshkent viloyatining Bo’stonliq tumanidagi baland tog’lar o’ralgan go’zal Xumson qishlog’ida tug’ilgan. Xumsonni ta’riflab Vatan, tabiat haqida qator she’rlar yozgan. Shuningdek, uning asarlari sodda tilda yozilgan bo’lib, aksariyati bolalarga atalgandir. Elbek bolalarni juda yaxshi ko’rgan. Shuning uchun doim ta’lim-tarbiya beruvchi, Vatanni sevishga chorlovchi hikoya va masallar, she’rlar yozib qoldirgan. O’qituvchi va o’quvchilarni ilmli, ma’rifatli bo’lishi uchun til va adabiyot, xususan bolalar adabiyotiga oid darsliklar va ulardagi dars o’tishga oid uslublar bugungi metodologiyamizdan farq qilmaydi va tayanch bo’lib xizmat qiladi. Masalan: “Go’zal yozg’ichlar” darsligidagi tuzguvchining “Qo’zg’ol”, “Kuchsizlar dunyosi”, “O’langa”, “Ko’klam chog’ida yaproqlar”, “Erk qizig’a”, “Ot ila odam”, “Mozor” kabi asarlari bolalarni yaxshilikka chorlaydi, erkinlik, hurlik uchun kurashga da’vat etadi, yaxshini yomondan farqlashni o’rgatadi.

“Kuchsizlar dunyosi” masali Turkistonda bir chekka qishloqda yashovchi ikki chol haqida. Bular tug’ilib o’sgan qishloq ham yaqin bo’lib, yov bosib olgani uchun tashlab ketishga majbur bo’lishgan. Bir kun yovuzlarga qarshi kurashda birlashish uchun aytilgan ovozlardan yugurib qolishadi:

Chollar muni eshitgachoq chopishg’onlar,  
Borib unda kuchsizlарга qapishg’onlar.  
Shunda yana tovush kelgan: Ey kuchsiz el,  
Yovuzlardan o’chingni tez olmoqqa kel!  
Kuchsiz bo’lub ezilgancha kuchlanib sen,  
Yovlaringg’a qarshi chiqib barchasin ez!  
Yashamoqni istaganlar kuchlanarlar,

## Kuchsiz qolg'on ellar har choq ezilarlar!

Bu masal va "Sichqonlar kengashi", "Maymunning qoziligi", "Jining olov yoqishi", "Chol bilan kampir", "Qo'ychi bilan bo'ri" masallari Haydarali Uzoqov tomonidan to'planib nashr etilgan "Momaguldurak" hamda "Elbek. Tanlangan asarlar" kitoblarida uchramaydi. Bu masallar ilk bor Ulug'murod Sultonovich Amonov (ph.D, dotsent BuxDPI) tomonidan arab yozuvidan amaldagi Lotin alifbosiga asoslangan yozuvimizga tabdil qilinib, "Elbek. Armug'on yolqinlar" nomi ostida 2017-yil nashr qilindi.

Shuningdek, "Go'zal yozg'ichlar" darsligida Muborak Yunusova<sup>21</sup>ning "Tuyg'unoy" asari ham berilgan. Asar qahramoni Tuyg'unoy bo'lib, voqealar uning 1924-yilda talabalar qatorida chet elga o'qishga ketishi oldidan onasi bilan xayrlashuvi haqida hikoya qiladi. Otasi Tursun aka bo'z to'quvchilik bilan kun kechiradigan qirq besh yoshlardagi oddiy bir ishchi bo'lib, 1920-yilda ishchilar hukumatini yoqlab bosmachilarga<sup>22</sup> qarshi chiqadi va u chaqimchilar tomonidan yetkazilgan bosmachilar tomonidan o'z uyida otib o'ldiriladi.

Bir tomonda Tuyg'unoyning hayoti o'zgarishi, yangi dunyoni ko'rishi, o'zgacha muhit va yangi do'stlar orttirishi, eng asosiysi ilm olishi, kelajakda Vatani, xalqiga o'zgacha ruhda qaytishini har bir qiz asarni o'qiyotgan chog'ida ko'z oldidan o'tkazadi.

Ikkinci tomondan esa, Onaning sog'inchi, yolg'iz qorachig'i, hayotdagи umidi bilan xayrlashib, motamxonada qolishi hikoyalanadi.

Biz bilamizki, bundan 100 yillar oldin jadidlarimiz 70dan ziyod yoshlarni Germaniya va Turkiyaga o'qishga yuborishgan. Balki ular orasida Tuyg'unoy ham bo'lgandir. Qizlarning yolg'iz o'zi chet elga borib o'qishi juda qiyin bo'lган. Lekin shunga qaramay jadidlarimiz xotin-qizlarning ilm-ma'rifatli bo'lishi uchun qattiq kurashishgan. Bularning yorqin namoyondasi Elbekdir. Uning ijodiga nazar solsak, xotin-qizlar mavzusidagi asarlar salmoqli o'rin egallagan. Uning "Erk qizig'a", "Ongli o'zbek qizi tilidan", "Ey xotin", "So'lg'in chechak"ka", "Ey xotin, tingla", "Ko'k qizi" singari

<sup>21</sup> Elbek 1921-yilda Muborakka uylangan. Farzandi Ulug'bek Elbekov ham o'qituvchi bo'lib, 2006-yilda 84 yoshida vafot etdi.

<sup>22</sup> Istiqlol uchun kurashgan qo'rboshilar harakati uzoq yillar bos-machilik harakati, deya noto'g'ri talqin qilingan (Sh.N).

she'rlari, "Anorgul" va "Tozagul" asarlari fikrimizning yorqin dalilidir.

Elbek bolalar adabiyotiga nazariy va metodik tayyorgarlik hamda tajriba bilan kirib keldi. Uning boshlang'ich maktab bolalari uchun darslik va o'quv qo'llanmalari tuzish tajribasi bolalar yoshi xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda badiiy asarlar yozish iqtidorini, demakki, bolalar shoiri va bolalar yozuvchisi sifatidagi iste'dodini shakllantirishda muhim omil bo'ldi. Bu jihatdan "Bilim" darsligining ikkinchi kitobida keltirilgan "Odamlarning kuchi nimada?" hikoyasi e'tiborga loyiq:

"O'rmonda yirtqich odama aytadi:

– Saqlan, qo'limga tushma, seni chaynab tashlayman,  
qush aytadi: – Men ko'kka uchib ketaman, odam meni tutolmaydi.

Baliq o'ylaydi: Men suv tubiga suzib ketaman, odam meni tutolmaydi.

Qurt aytadi: – Men yerga kirib berkinaman, kishi meni topolmas. Men kishiga kerak ham emasman.

Odam miltiq, tuzoq, qarmoq, ketmon yasadi. Yirtqish hayvonlarni topib otdi. Tuzoq qo'yib, qushlarni ilintirdi. Qarmog'iga tiqish uchun ketmon bilan yer kovlab, qurtni topdi va baliqni suvdan ilintirib oldi: odamning kuchi yasagan qurollarida."

Adibning mahorati shundaki, hayotiy saboq bolalarga xos mushohadakorlik zaminida ifodalangan.

Bolalar adabiyotini o'rganishda Abdulla Avloniy, Sadreddin Ayniy va boshqa ma'rifatparvar jadidlarimiz qatorida Elbekning hayoti va ijodiga murojaat qilinadi. Elbek hayoti davomidagi ko'plab qiyinchiliklarga qaramay, bolalar uchun turli janrdagi asarlar, shu bilan birgalikda pedagogik faoliyatida boshlang'ich maktablar uchun darsliklar yaratdi. Uning ijodi bugungi kungacha o'rganilib kelinmoqda.

### **Elbekning merosi:**

<b>She'rlar</b>			
Tutqun qushcha	Ko'z yoshlarim	Qarg'a	Til
Parda	Muhit ichida	Yana aldading	Bir so'rog'

Bulbulg'a	Bizning qishloq	Mening tilagim	O'ksuzning o'limi
Parcha	Parcha	Parcha <sup>23</sup>	O'zbek yigitig'a
Parcha (32-b. T.A.)	Tongg'i uyg'oqlik	Qishloq turmushidan	Yo'lovchig'a
Ko'ngil chechagi	Parcha (34-b. T.A.)	Tilak yo'lida	Vulqon
Kiyikka	Parcha (37-b. T.A.)	Uyg'on ko'nglim	Kesilg'on umid
Sevgilimga	O'ksuz	Yoshliq	Eslash
Ongli o'zbek qizi tilidan	Oynacha	Yer islohoti	O'lim
Oq bulutlar	Tun-kun	O'langa	Ko'klam chog'ida yaproqlar
Suv	Nechun	Parcha (53-b. T.A.)	Ishchi
Otlan	Umar Xayyomdan marhuman tarjima	Parcha (55-b. T.A.)	Teva
Parcha (55-b. T.A.)	Ey xotin	Tilak	Askar
Yer	Bibixonim madrasasi	Qoraquloq	Tekinxo'r larg'a
Turmush yo'lida kurashguvchilar g'a	Ko'rgilik	Ayirmamiz	Parcha (63-b. T.A.)
Dengiz	Sel suvining ashulasi	Qurban	Ozodlik qurbanlariga
Bizning va'damiz	Lena qurbanlariga	Ey xotin, tingla	Ko'zgu

<sup>23</sup> Elbek. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi prof. H.Uzoqov. "Sharq" Toshkent-1999. 30-31-betlar.

Quyosh(192 6)	Bugun	Erk nima?	Qorong'i dan bir tovush
Turmushmi, bu	Ona	Oy	"So'lg'in chechak"ka
Ko'klam	Chimyon tog'iga	Chirchiq	Cho'pon
Ikki boshoq	Qish	Temirchilar	Boqochl ar
Yozni eslash	Bahor	Kechqurun	Ovchilar
O'rta Osiyoda kech kuz	Sahroda	Tuyg'u	Mujdala r
Batrak Qoravoy	Bahor ishqi	To'rg'ay	Yalta oqshomi
Yozgi tun	Kuzgi tun	Oqshom	Qishloq dan xat
Ishchi qo'l	Quyosh(19 29)	Ko'kat paxtalar	Ko'k qizi
Ko'k qizi emas	Kechki olmoshda	Qalbim	Bir o'lim xotirasi
Qizil olmalar	Anorjon	Qishlog'im	Qutlaym an
Tozagul uchun	Mening hikoyam	Toshkent kechasi	Yo'Ichi kuylari
So'lmash gul	"Gulsara"ni ng egasiga	Yo'qlash	Yozuvch ilar bog'ida
Bog'chada	Qo'ylarim	Chirchiq qizi	Tog'da bahor
Chirchiq bo'ylarida	Turkiston(1 925) <sup>24</sup>	Kemachi ila Hakim	Tavba
Qo'zg'ol	To'y	Sir to'lqunlari	Quyosh chiqishi
Qapas	So'ngg'i hushyorliq	Qizil qo'shining	Ko'klam keladir

<sup>24</sup> Elbek. Momaguldurak. Nashrga tayyorlovchi H.Uzoqov. Toshkent "Cho'lon" nashriyoti. 1993. 144-b.

		milliy qismlariga	
Sirdaryo <sup>25</sup>	Elektrik	Qizil bayroq	Yer bilan tog' o'rtasida
Erk qizig'a <sup>26</sup>	Ekinchi <sup>27</sup>	Sog'ing'on choqlarda	Qurolg'a
Ko'mak et	Ekinchining o'tunchi	U kim?	Qizil askarga oling'on yigitning so'zi
Sham	Farg'ona oqshomi	O'qurchoq (to'rtlik)	Lolazor da
Kuyganlar yoki turmush muammozi			
<b>Bolalarga</b>			
Kachalak	Gunafsha	Viqor	Polizda
Yozda mevalar	Kuz	Momaguld urak	Baliq ovi
<b>Masallar</b>			
Qaysi biri bo'ri?	Itlarning o'rtoqligi	Quyan ila toshbaqa	Imom bilan Qo'ychiboy
Ikki tulki	Ola qarg'a bilan qurbaqa	Ot ila odam	"Esli"(on gli) eshak
Quyruqsiz maymun	Sichqonnin g qiz uzatishi	Shabparral ar qarori	Jonivorl ar birligining buzilishi
Yelkan bilan kema	Sholi bilan kurmak orasida	Qora qushlar ila toshbaqalar	Chivin ila chumoli

<sup>25</sup> Elbek. Armug'on. Yolqinlar. Nashrga tayyorlovchi U.AMONOV. Toshkent "Turon zamin ziyo" 2017. 56-b.

<sup>26</sup> Elbek. Go'zal yozg'ichlar. Boshlang'ich maktablarning 4-bo'lumlari uchun tuzilgan o'qish kitobi. 1925.

<sup>27</sup> O'zbek yosh shoirlari: she'rlar to'plami/Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lipon, Botu, Elbek. Nashrga tayyorlovchi Sh.Nazarova. "Zabarjad media" 2023. 96-b.

Kuchsizlar dunyosi <sup>6</sup>	Sichqonlar kengashi	Maymunnin g qoziligi	Jining olov yoqishi
Chol bilan kampir	Kim aldamchi	Kampirning tovuqlari	Qo'ychi bilan bo'ri
Kemachi bilan Hakim	Yirtqichlar majlisi	Bir-ikki so'z	
<b>Ertaklar</b>			
Go'zal qiz	Ko'knori xayol	Kambag'al yigit va pardasturxon haqida ertak	Erksiz folchi
Omonat	Mozor <sup>7</sup>		
<b>Elbek to'plagan bolalar qo'shiqlari</b>			
Bor ekan	Chittigul	Boychecha k	Oftob chiqdi olamga
Yomg'ir	Tepdim sandiq ochildi	Sanoq o'yun	Qaldirg' och
Shodmon yaloqi	Parcha-topishmoq	Bangi-bangi	Qaychi-qaychi
Laqashiqild oq	Bodroq sotuvchining ashulasi	No'xat sho'rak sotuvchining ashulasi	Chori chanbar
Ho'kiz aytadi	Laylak		
<b>Elbek to'plagan xalq qo'shiqlari</b>			
Yor-yor	Qo'zixon	Bo'g'ma bilagim	Omon-omon
Paxta to'g'risida	Fabrika to'g'risida	ZAGS to'g'risida	"Meni otam ottilar..."
Maorif-madaniyat to'g'risida	Yerli xalqlardan askar olinishi haqida	Omonyor	Laparlar
Mardikor voqeasi			

<b>She'riy to'plamlar (ashulalar to'plami)</b>			
Armug'on	Yolqinlar	Sezgilar	Mehnat kuylari
G'unchalar	Chirchiq bo'ylarida	Bolalar qo'shig'i	She'rlar to'plami
She'rlar	Ko'zgu	Bahor	
<b>Doston va balladalar</b>			
O'tmishim	Anorjon	Turkiston(1 928) <sup>28</sup>	Bizniki
Paxta	Chirchiq(19 29)	Batrak kolxozi	O'zbeki ston
Bog'bon	Etik	Mergan	
<b>She'riy roman</b>			
Tozagul			
<b>Nasriy asarlar(hikoyalar)</b>			
Fohisha	Ona	Anorgul	Dadamat (T.A.)
Chirchiq	Men kim bo'laman	Qahhorxo'ja	Qo'shchi Turg'in
Kelgusining quyoshi	Odamlarni g kuchi nimada?(Bilim)	Yo'Idoshnin g tegirmoni (O'zbekcha o'qish kitobi)	Totli sho'rvo
Jo'jalar	Mashoqchi Erbo'ta (Hikoya. "Maorif va o'qitg'uchi", 1926, 9-son)	Yangi turmush izlovchi	
<b>Darslik va o'quv qo'llanmalar</b>			
Imlo masalasi	Boshlang'ich mifik ona tili	Yozuv yo'llari	Go'zal yozg'ichlar
O'rnak	Bilim	O'zbekcha	Sovg'a <sup>29</sup>

<sup>28</sup> Internet sahifasi: <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/elbek-2/>

<sup>29</sup> <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2834/2603>

O'qish kitobi	Adabiyot xrestomatiyasi	Maktabgacha yoshdagibolalar uchun xalq adabiyoti	
<b>Topishmoqlar, maqollar va ashula to'plamim (1923)</b>			
<b>Elbekning ekspeditsiya natijasidagi to'plamlari</b>			
Ashulalar to'plami	Laparlar	Ertaklar	
<b>Tarjimalari</b>			
I.A.Krilov "Fil va laycha", "Ko'zgu va maymun", "Tulki va uzum", "Eshak bilan bulbul", "Bo'ri bilan Turna" masallari	A.S.Pushkin n "Baliqchi haqida ertak", "Oltin xo'roz haqida ertak", "Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak"	N.A.Nekrasov "Unutilgan qishloq", "Bolalar yig'isi", "Rusiyada kimlar yaxshi yashaydilar" she'rlari	
<b>Elbekning "O'zbekcha shakldosh so'zlar lug'ati" (1934) o'zbek tilidagi dastlabki omonimlar lug'atidir.</b>			
Ma'nodosh so'zlar lug'ati			
<b>Maqolalari</b>			
Lug'at va atamalar	Imlo masalasi	Til o'qitishda savodxon bo'loyliq	Yangi alifboni to'la egallah uchun
Til	Imlo va til quriltoyi chaqirilishi oldidan	O'zbek imlo quriltoyi va uning qoldirgan ta'siri	Alifbe masalasi
Turk tillarining qonunlari to'g'risida	Til darsligi	Otilmagan sopqon	Tilimizda agi yangiliklar
Yana til -	Imlomiz	Til imlomiz	O'zbek

imlo masalasi	ustida bir necha so'z	ustida	folklori lug'ati
O'zbek xalqining izohli lug'atiga oid materiallar	Laparlar	Navoiy	Darsda til lug'atlaridan foydalanish
Gazeta tilida birlik bo'lsin			

### **Adabiyotlar:**

1. Amonov U.S. O'zbek folklorshunosligi xrestomatiyasi. Toshkent: "Paradigma", 2018-yil, 99-120-betlar.
2. Amonov U.S. Armug'on yolqinlar. Toshkent: "Turon zamin ziyo" 2017.
3. Amonov U.S. O'zbek tili. Toshkent: "Muharrir" nashriyoti. 2011.
4. Amonov U. S. Turkiston o'lkasida usuli jadid mакtablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti //Pedagogs jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 412-414.
5. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
6. Amonov U. S., Saparova S. R. The mother tongue textbook of the primary school in Elbek's interpretation //Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 6. – С. 403-407. 8.
7. Amonov Ulug'murod Sultonovich, Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbek – bolalar adabiyotini o'qitish metodikasining asoschisi" "Ayniy vorislari" 2023-yil. 73-77-betlar. [https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy\\_vorislari\\_1\\_2023.pdf](https://buxdu.uz/media/jurnallar/ayniy/ayniy_vorislari_1_2023.pdf).
8. Amonov U. S. Folklore in the works of Abdurauf Fitrat //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 10. – С. 9-12. <https://www.semanticscholar.org/paper/FOLKLORE-IN-THE->

## WORKS-OF-ABDURAUF-FITRAT

Amonov/dcc79abce08ba4602c2dc5b5ae3a87b345797d63

9. Amonov U. S. Abdurauf Fitrat is one of the earliest researchers of uzbek folklore. “Academicia” An International Multidisciplinary Research Journal, India. June 2020. 669-673p. DOI:10.5958/2249- 7137.2020

<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=10&issue=6&article=096>

10. Amonov U.S. Jadidchilik harakati va “Buxoroyi sharif” ro’znomasi. “Ta’lim va innovatsiyalar” jurnali №5. 2022-may. 62-68-betlar.

<http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1183/448>

11. Amonov U.S. Новые грани творческого наследия Элбека. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 2020 yil. 4-son. 62-63-betlar.

12. Elbek. Tanlangan asarlar. Toshkent: “Sharq”, 1999-yil.

13. Saparova Shahlo Ramazonovna. Elbekning Asarlaridan Foydalanib Bolalar Adabiyotini O’Qitish Metodikasini Takomillashtirish. Miasto przyszlosci. Vol. 46(2024) 221-226-b.  
<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2834/2603>

14. Saparova Sh.R. “The classification of Elbek poems in 5 directions” [ped\\_mahorat@umail.uz](mailto:ped_mahorat@umail.uz) 2021-yil, dekabr. 175-bet.

15. Saparova Shahlo Ramazonovna “Elbek o’zbek tili va adabiyotini o’qitish metodikasining asoschisi” Boshlang’ich ta’lim mazmunini takomillashtirish: o’quv dasturi-o’qituvchi-baholash xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro-2023. 352-355-betlar

16. Saparova Shahlo Ramazonovna “Elbek philologist, teacher, children’s poet” “Boshlang’ich ta’limning zamonaviy tendentsiyalari: Ta’lim va tarbiya integratsiyasi” III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi Jizzax shahri. 2023-yil 4-may. 75-78-betlar

17. Saparova Shahlo Ramazonovna “Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun Elbekning yaratgan darsliklari” “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 2023-yil aprel. 68-77-betlar.

<https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52>

<https://interscience.uz/index.php/home/issue/view/52/128>

18. Saparova Sh.R. "Both creative and teacher" Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: Zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar xalqaro-ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2023-yil 15-may. 230-232-betlar.
19. Saparova Shahlo Ramazonovna "Jadidchi Elbekning bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi hissasi" Journal of universal science research. 15.12.2023. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-12. 246-256-betlar.  
<https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/3289>
20. Saparova Shahlo Ramazonovna. Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM EducationVolume 01, Issue 10, 2023ISSN (E): 2993-2769. P-564-572  
[View of Improving the Methodology of Teaching Children's Literature Using Elbek's Textbook "Go'zal yozg'ichlar" \(grnjournal.us\)](#)
21. Saparova Shahlo Ramazonovna "Implementation Of Elbek's works in teaching children's literature"  
<https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/504/584>
22. Saparova Shahlo Ramazonovna "Elbekning asarlaridan foydalanib bolalar adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish"  
<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2834/2603>
23. Safarov O., Jamilova B., Safarova N. Bolalar adabiyoti va folklor. –Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015.– 356b.

<b>Abdiyeva Shahzoda Sherzod qizi</b>	<b>478</b>
<b>Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin</b>	
<b>Xojiboqiyeva Nigina O'tkir qizi</b>	<b>480</b>
<b>MAVJUDLIK DAN YASHASHGA QIZAQISHI</b>	
<b>Nurmatova Madina Rahimjon qizi</b>	<b>481</b>
<b>Ona tilim</b>	
<b>Musulmonlarning qizlari</b>	
<b>Vatan</b>	<b>482</b>
<b>Jonqulova Nasiba Ne'mon qizi</b>	
<b>Da'vat</b>	<b>485</b>
<b>Бегойи (Райхон) ғалабергенч</b>	
<b>БЕГОНА</b>	<b>487</b>
<b>МЕХР</b>	
<b>Dildora Bo'libekova</b>	
<b>ILM HAQIDA</b>	<b>492</b>
<b>Бегали ЯРАТОВ</b>	
<b>МЕН БЕЗДИМ</b>	<b>494</b>
<b>Элбай ҚУЛМОНОВ</b>	
<b>АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙ АСАРЛАРИДА ДИНИЙ МАФОСИМЛАРНИНГ ЁРИТИЛИШИ</b>	<b>496</b>
<b>Kumush ZAVQIYEVA</b>	
<b>JADIDCHIYLAR</b>	<b>502</b>
<b>Navro'zov Laziz</b>	
<b>ABDULLAHIMID</b>	
<b>ADABIYOTINING</b>	<b>503</b>
<b>ATOQLI NAMOYANDASI</b>	
<b>Xalilova Sevara Anvar qizi</b>	
<b>Otamning bardoshin sindirma hayoti</b>	<b>506</b>
<b>Muxtorova Sevinch G'aybullha qizi, TURKISTON MAVZUSI VA YOSHLARI</b>	
<b>Axmadalieva Nilzoda</b>	<b>508</b>
<b>Qobuljon qizi</b>	
<b>Usmonova Marjan</b>	
<b>Jadidchilik. XX asrda Turkiyaning jadidchilik</b>	<b>515</b>
<b>Ismoilova Nigora Mirzoaliyevna</b>	
<b>MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA ONA TIMSOLI</b>	<b>519</b>
<b>Amonov Ulug'murod Sultonovich</b>	
<b>ELBEK YOZG'ICHLARINING - BOLALAR</b>	<b>532</b>

# BUYUK JADIDCHILAR

*izdoshlari*

# DIPLOM

#010118

*Saparova Shahlo Ramazonovna*

O'zbekistonning «Phoenix» nashriyoti hamda nufuzli xorijiy tashkilotlar hamkorligida tashkil etilgan «Buyuk jadidchilar izdoshi» xalqaro tanlov-almanaxida o'zining yorqin ilmiy/ijodiy ishi bilan faol ishtirok etganligi va ilm-fan sohasida o'zining qo'shib kelayotgan xizmatlari bilan buyuk allomalarimizning ilm-fan sohasidagi xizmatlarini targ'ib qilishda qo'shayotgan na'munali ishlari uchun diplom bilah taqdirlanadi.



«Phoenix» nashriyoti  
bosh rahbari

2024



JADIDCHILAR IZDOSHLARI

# GUVOH NOMA 118

*Innovator  
Rahbar*

Almanax - tanlova faol  
ishtiroki uchun

## «BUYUK JADIDCHILAR IZDOSHLI»

maxsus ko'krak nishoni bilan  
taqdirlanadi.



15.07.2024

**Sana**

*Sana*  
«Phoenix» nashriyoti  
rahbari

